

# QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASIDAGI KORXONA VA TASHKIOTLAR DEMOGRAFIYASI BO'YICHA MA'LUMOT

2022- yil 1- may holatiga ko'ra  
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



## Mamlakatimizda oxirgi yillarda tadbirkorlik subyektlariga ko'rsatilayotgan e'tibor

Tadbirkorlik subyektlari iqtisodiyotni rivojlantirish, aholi bandligi va daromadlarini oshirishda muhim omildir. Ushbu soha vakillarini har tomonlama qo'llab-quvvatlash maqsadida, oxirgi yillarda Prezidentimizning ko'plab farmon va qarorlari qabul qilindi.

Jumladan, tadbirkorlik faoliyatini davlat ro'yxatidan o'tkazish, turli ruxsatnomalar olish va boshqa ko'plab xizmatlar tartib-qoidalari soddalashtirildi. Bu borada qulaylik yaratish uchun Davlat xizmatlari agentligi va uning joylardagi markazlari tashkil etildi. Tadbirkorlik subyektlarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish bo'yicha vakil (Biznes-ombudsman) devoni tashkil qilindi.

Barcha hududlarda tadbirkorlar murojaatlarini qabul qilib, hal etishga ko'maklashadigan Bosh vazir qabulxonalari tashkil etildi. Vazirlar Mahkamasi huzurida Tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishni qo'llab-quvvatlash davlat jamg'armasi faoliyati yo'lga qo'yildi. Tijorat banklari tomonidan tadbirkorlarga ajratilayotgan kreditlar hajmi oshdi.

Oxirgi yillarda hukumatimiz tomonidan tadbirkorlik subyektlarining faoliyatini yanada rivojlantirish va barqaror faoliyat ko'rsatishini ta'minlash maqsadida yaratib berilayotgan shart-sharoitlar va qulayliklar natijasida faoliyat ko'rsatayotgan hamda yangi tashkil etilayotgan korxona va tashkilotlar soni yildan-yilga sezilarli ravishda oshib bormoqda.

Korxona va tashkilotlar to'g'risidagi mazkur ma'lumotlar O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi Davlat xizmatlari agentligi ma'lumotlar bazasi asosida, 2022- yil 1- may holatiga ko'ra (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz) shakllantirildi.

## Ro'yxatdan o'tgan korxona va tashkilotlar soni

(1- may holatiga ko'ra, birlikda)



### Ro'yxatdan o'tgan korxonalar

**25 756**

107,2 %



### Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar

**24 308**

106,6 %



### Yangi tashkil etilgan korxonalar (2022- yil yanvar-aprel oylarida)


**1437**

82,8 %

Mamlakatimizda qulay ishbilarmonlik muhitini yaratish va tadbirkorlikni jadal rivojlantirish borasida qator ijobiy o'zgarishlar amalga oshirilmoqda. O'z ornida, tadbirkorlik subyektlarini davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yish borasida ham qonunchilikda muhim qarorlar qabul qilinib, davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yishni avtomatlashtirilgan tizimi bosqichma-bosqich ishlab chiqilib, amaliyotga tatbiq qilinmoqda. Bu esa, aholi hamda xorijiy investorlarning o'z shaxsiy biznesini yo'lga qo'yish va rivojlantirish uchun muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda.

## Faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni

(1- may holatiga ko'ra, birlikda va o'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati bilan)



# Faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalarini soni

(tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha  
2022-yil 1-may holatiga ko'ra, birlikda)

4




## Faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni

(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 1-may holatiga ko'ra, birlikda)



## Yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlar soni

(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha, 2022- yil yanvar- aprel oyida)



## Yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlar soni

(2022- yil yanvar- aprel oyida, birlikda)




# Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar


(1-may holatiga ko'ra, birlikda)

6

Jami faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning umumiyl soni  
o'tgan yilning shu davriga nisbatan **6,0** foizga oshdi




■ Kichik tadbirdorlik subyektlari ■ Mikrofirmalar ■ Kichik korxonalar



■ Dehqonchilik, chovachilik,  
ovchilik va bu sohalarda xizmat  
ko'rsatish

■ O'rmon xo'jaligi

■ Baliqchilik xo'jaligi




# Sanoat yo'nalishida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni

(2022- yil 1- may holatiga ko'ra, birlikda)

7



*Jami faoliyat  
ko'rsatayotgan sanoat  
korxonasi va  
tashkilotlarning  
umumiyligi o'tgan  
yilning shu davriga  
nisbatan 6,2 foizga  
oshdi*



■ Kichik tadbirkorlik subyektlari ■ Mikrofirmalar ■ Kichik korxonalar



2022- yil 1- may holatiga ko'ra, sanoat korxonalari va tashkilotlari soni 3 206 tani tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 6,2 % ga oshdi.


Jami sanoat korxonalari va tashkilotlari ko'payishining asosiy omili (o'tgan yilning mos davriga nisbatan), ishlab chiqarish (qayta ishslash) sanoatida 6,3 % ga (jami sanoatdagi ulushi 91,2 %), suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilishning 38,3 % ga (jami sanoatdagi ulushi 2,0 %) o'sishi kuzatildi va tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishslash 2,8 % ga (jami sanoatdagi ulushi 5,7 %), elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash 80,5 % ga (jami sanoatdagi ulushi 1,0 %) tashkil etdi.

# Qurilish faoliyati bilan shug'ullanayotgan korxona va tashkilotlar soni

(1- may holatiga ko'ra, birlikda)




*Jami faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning umumiyligi o'tgan yilning shu davriga nisbatan 1,5 foizga oshdi*




## Kichik tadbirkorlik subyektlari soni




**1,2**  
foizga oshdi




## Mikrofirmalar



## Kichik korxonalar



## Qurilish faoliyati bilan shug'ullanayotgan korxona va tashkilotlar soni, yillar kesimida



- ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari
- fuqarolik obyektlarini qurish
- bino va inshootlar qurish

2022- yil 1- may holatiga ko'ra, qurilish sohasida korxona va tashkilotlar soni 2 426 tani tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 1,5 % ga oshdi.

Jami qurilish sohasidagi korxona va tashkilotlar soni ko'payishining asosiy omili bu - bino va inshootlar qurishda - o'tgan yilga nisbatan 98,9 % ga (jami qurilishdagi ulushi 59,0 %), fuqarolik obyektlarini qurish - 45,5 % ga (jami qurilishdagi ulushi 13,2 %), ixtisoslashtirilgan qurilish ishlaringin 93,2 % ga (jami qurilishdagi ulushi 27,8 %) tashkil etdi.

# Savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni

(1- may holatiga ko'ra, birlikda)




*Jami faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning umumiyl soni o'tgan yilning shu davriga nisbatan **12,6** foizga oshdi*



## Kichik tadbirkorlik subyektlari soni



## Mikrofirmalar



## Kichik korxonalar




# Savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni, yillar kesimida

(1- may holatiga ko'ra, birlikda)

2022- yil 1- may holatiga ko'ra, savdo sohasidagi korxona va tashkilotlar soni 6 637 tani tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 12,6 % ga oshdi.

Jami savdo korxona va tashkilotlari soni ko'payishining asosiy omili - avtomobil va mototsikllar savdosidan tashqari chakana savdoda o'tgan yilga nisbatan 7,8 % ga (jami savdodagi ulushi 68,6 %), avtomobil va mototsikllar savdosidan tashqari ulgurji savdoda o'tgan yilga nisbatan 27,1 % ga (jami savdodagi ulushi 22,9 %), avtomobil va mototsikllarning ulgurji va chakana savdosi va ularni ta'mirlashning o'tgan yilga nisbatan 19,4 % ga (jami savdodagi ulushi 8,5 %) o'sishidir.



■ Avtomobil va mototsikllarning ulgurji va chakana savdosi va ularni ta'mirlash

■ Avtomobil va mototsikllar savdosidan tashqari chakana savdo

■ Avtomobil va mototsikllar savdosidan tashqari ulgurji savdo

- Sog'liqni saqlash sohasidagi faoliyat

416



- Yashash uchun joy bilan ta'minlangan holda parvarishlash

28



- Yashash uchun joy bilan ta'minlanmagan holda ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish


9



## Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni



Jami faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning umumiy soni o'tgan yilning shu davriga nisbatan 9,7 foizga oshdi




### Kichik tadbirkorlik subyektlari soni



### Mikrofirmalar



### Kichik korxonalar



# Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni

(2022- yil 1- may holatiga ko'ra, birlikda)

11



Jami faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning umumiy soni o'tgan yilning shu davriga nisbatan **2,8** foizga oshdi




## Kichik tadbirkorlik subyektlari soni




**2,9**  
foizga oshdi



## Mikrofirmalar



## Kichik korxonalar



# Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni

(2022- yil 1- may holatiga ko'ra, birlikda)



**99**  
yashash bo'yicha xizmatlar




**1 273**  
Oziq-ovqat mahsulotlari va ichimliklar yetkazish bo'yicha xizmatlar

2022-yil 1- may holatiga ko'ra, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasidagi korxona va tashkilotlar soni 1 372 tani tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 2,8 % ga oshdi.

Jami yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasidagi korxona va tashkilotlar soni ko'payishining asosiy omili - oziq-ovqat va ichimliklar yetkazish bo'yicha xizmatlar 2,7 % ga (jami yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasidagi ulushi 92,8 %), yashash bo'yicha xizmatlarning 3,1% ga (jami yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasidagi ulushi 7,2 %) o'sishidir.

## Kichik tadbirkorlik subyektlari soni

(2022- yil 1- may holatiga ko'ra, birlikda)




### Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxona va mikrofirmalar soni

(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 1- may holatiga ko'ra, birlikda)



## Oilaviy korxonalar soni

*(1- may holatiga ko'ra, birlikda)*



Tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha ro'yxatdan o'tgan oilaviy korxonalar soni 2022- yilning 1- may holatiga ko'ra 2 151 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 311 ga yoki 16,9 % ga oshganligini ko'rish mumkin.

Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalar soni 1 973 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 248 ga yoki 14,4 % ga oshganligini ko'rish mumkin.

2022- yilning yanvar-aprel oylarida yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalar soni 135 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 65,9 % ga tashkil etgan.

## Mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni

*(1- may holatiga ko'ra, birlikda)*

Tashkiliy huquqiy shakli bo'yicha ro'yxatdan o'tgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni 2022- yilning 1- may holatiga ko'ra 16 096 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 1 592 ga yoki 11,0 % ga oshganligini ko'rish mumkin.

Faoliyat ko'rsatayotgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni 15 205 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 1 475 taga yoki 10,7 % ga oshganligini ko'rish mumkin.

2022- yilning yanvar-aprel oylarida yangi tashkil etilgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni 1 054 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 79,8 % ni tashkil etgan.



# Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarning davlatlar kesimida soni


(2022- yil 1- may holatiga ko'ra, birlikda)

14



## Xorijiy kapital ishtirokidagi korxona va tashkilotlar soni

(2022- yil 1- may holatiga ko'ra, birlikda)




Ro'yxatdan o'tgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxona va tashkilotlar soni 2022- yil 1- may holatiga ko'ra 180 tani tashkil etib, ulardan 179 tasi yoki 99,4 % faoliyat ko'rsatmoqda. Bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan olganda 7 ta yoki 4,1 % ga oshganligini ko'rish mumkin.

2022- yilning yanvar-aprel oylarida 4 ta xorijiy kapital ishtirokidagi korxona va tashkilotlar yangi tashkil etildi.

# Tumanlar kesimida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni

15

(1- may holatiga ko'ra, birlikda)



**Hududlar kesimida xorijiy kapital ishtirokidagi  
faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar soni**  
(2022- yil 1- may holatiga ko'ra, birlikda)

16


	<b>Jami</b>	<b>shundan:</b>	
		<b>qo'shma korxona</b>	<b>xorijiy korxona</b>
<b>Qoraqalpog'iston Respublikasi</b>	<b>179</b>	<b>107</b>	<b>72</b>
<b>tumanlar:</b>			
Amudaryo	<b>5</b>	2	3
Beruniy	<b>10</b>	5	5
Bo'zatov	<b>7</b>	7	0
Qorao'zak	<b>11</b>	7	4
Kegeyli	<b>6</b>	5	1
Qo'ng'irot	<b>9</b>	7	2
Qonliko'l	<b>7</b>	3	4
Mo'ynoq	<b>36</b>	23	13
Nukus	<b>9</b>	5	4
Taxiatosh	<b>9</b>	3	6
Taxtako'pir	<b>4</b>	2	2
To'rtko'l	<b>6</b>	5	1
Xo'jayli	<b>3</b>	1	2
Chimboy	<b>4</b>	3	1
Shumanay	<b>4</b>	2	2
Ellikqal'a	<b>5</b>	4	1
Nukus sh.	<b>44</b>	23	21

Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarning asosiy qismi Nukus shahrida 44 ta (umumiy miqdoridagi ulushi 24,6 %), Mo'ynoq 36 ta (20,1 %), Qorao'zak 11 ta (6,1%), Beruniy 10 ta (5,6%), Nukus, Qo'ng'irot va Taxiatosh tumanlarida 9 ta (5,0 %), Qonliko'l 7 ta (3,9%), Bo'zatov 7 ta (3,9%), Kegeyli va To'rtko'l tumanlarida 6 ta (3,4 %) tashkil etadi.

# Ro'yxatdan o'tgan korxona va tashkilotlarning hududlar bo'yicha soni

(2022- yil 1- may holatiga ko'ra, birlikda)

17




2022- yil 1- may holatiga ko'ra, ro'yxatdan o'tgan korxona va tashkilotlar tumanlar kesimida taqsimlanganda ularning ulushi Nukus shahri (28,1 %), To'rtko'l (9,8 %), Beruniy (8,5 %), Amudaryo (7,6 %), Ellikqal'a (6,3 %), Qo'ng'irot (5,8 %), Xo'jayli (5,2 %), Nukus (4,2 %), Chimboy (4,1 %), Taxiatosh va Kegeyli (3,2 %), Mo'ynoqda, Qorao'zak va Qonliko'l (2,7 %), Shumanay tumanlarida (2,5 %), Taxtako'pir (1,8 %) va Bo'zatov (1,6%) tumanlari hissalariga to'g'ri keladi.

## Yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlarning hududlar bo'yicha soni

(2022- yil yanvar- aprel oylarida, birlikda)


2022- yilning yanvar-aprel oylarida yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlar tumanlar kesimida taqsimlanganda, ularning soni Nukus shahrida (22,0 %), To'rtko'l (9,9 %), Beruniyda (10,2 %), Taxiatosh (4,4 %), Xo'jayli (3,7%), Ellikqal'a (8,7%), Qo'ng'irot (6,7%), Amudaryo (8,3 %), Nukus (3,9 %), Chimboy (3,7 %), Mo'ynoqda (3,0 %), Kegeyli (4,0 %), Shumanay (2,7%) Qorao'zak (2,6 %), Qonliko'l (2,5 %), Bo'zatov (1,4%), Taxtako'pir (2,3 %) tumanlari ulushiga tegishli.



# Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalarining hududlar kesimidagi soni

(2022- yil 1- may holatiga ko'ra, birlikda)

18



## Faoliyat ko'rsatayotgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlarning hududlar kesimidagi soni

(2022- yil 1- may holatiga ko'ra, birlikda)



2022- yil 1- may holatiga ko'ra, faoliyat ko'rsatayotgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar tumanlar kesimida taqsimlanganda ularning ulushi, Nukus shahrida (33,0 %), To'rtko'l (10,1 %), Beruniy (7,3 %), Amudaryo tumani (6,9 %), Xo'jayli va Qo'ng'irotda (5,4 %), Nukus (5,0 %), Ellikqal'a (4,5 %), Chimboy (4,2 %), Kegeylida (3,4 %), Mo'ynoq (3,0 %), Qorao'zak (2,9 %), Taxiatosh tumani (2,5 %), Bo'zatov (1,8 %), Shumanay va Qonliko'l tumanlarida (1,7 %), Taxtako'pir (1,2%) tumanlari hissasiga tegishli.

## Statistik ko'rsatkichlarga izohlar

**Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registri** axborot-ma'lumotnoma turidagi, vaqtiga-vaqtiga bilan yangilab boriladigan ma'lumotlardan iborat bo'lgan avtomatlashtirilgan tizim hisoblanadi hamda yagona klassifikatsiyalar tizimi asosida korxona va tashkilotlarning davlat hisobini va ularni identifikasiyalashtirishni ta'minlaydi.

**Ro'yxatga olingan korxona va tashkilotlar** ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilgan hamda yuridik shaxslarning davlat reestrinda mavjud bo'lgan yuridik shaxslardir (faoliyati tugatilgan yuridik shaxslardan tashqari).

**Faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar** ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilgan hamda davlat statistika organlariga moliya-xo'jalik faoliyatini amalga oshirmayotganligi yoki tugatish jarayonida ekanligi to'g'risidagi ma'lumot kelib tushmagan yuridik shaxslardir.

**Yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlar** ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda, yuridik shaxslarning davlat reestriga yangidan kiritilgan yuridik shaxslardir.

**Kichik korxona va mikrofirmalar** O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016- yil 24- avgustdagagi "Iqtisodiy faoliyat turlarini tasniflashning xalqaro tizimiga o'tish chora-tadbirlari to'g'risida" 275 - son qarorining 1- ilovasiga muvofiq, kichik tadbirkorlik subyektlariga ajratiladi.

## Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registri

Tashqi foydalanuvchilar, bevosita Davlat statistika qo'mitasining [www.stat.uz](http://www.stat.uz) rasmiy saytida real vaqt rejimida, so'ralayotgan yuridik shaxsning (STIR) kodini kiritib, axborotlarni bepul olishlari mumkinligi belgilab qo'yilgan.

**Statistik registrlarni yuritish bo'lumi**  
**Tel.: 61 224-92-09**